


O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini  
mexanizatsiyalashtirish*  
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent- 2023



### ISHLAB CHIQILGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti.

### TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil  
«21» 08 dagi 567 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

### JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.



## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tasnifi</i> .....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi</i> .....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i> .....	4
1.2.1.	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i> .....	4
1.2.2.	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i> .....	4
1.2.3.	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i> .....	5
1.2.4	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari</i> .....	5
2.	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</i> .....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar</i> .....	7
2.3.2	<i>60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi</i> .....	7
2.4	Kvalifikatsiyalar.....	8
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i.....	10
	Kelishuv dalolatnomasi.....	11



## **1. 60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi**

**60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

### **1.1 Qo‘llanish sohasi**

**1.1.1. 60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish** ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **60812400 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2.** Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

– ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi

vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning

ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60812400 - Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.**

**1.2.1. 60812400- Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60812400 - Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish** ta’lim sohasining bakalavrlar kasbiy faoliyati – fan va texnika sohasidagi ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, u suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini bajarish jaryonlarini mexanizatsiyalash, texnik vositalar va texnologiyalar, melioratsiya, qurilish mashinalarini va jihozlarini takomillashtirish, meliorativ mashinalar ratsional foydalanish, servis xizmati ko‘rsatishning tashkiliy masalalar yechimlarini zamonaviy innovatsion konsepsiyalari asosida ishlab chiqish, va amalga oshirish bilan bog‘liq kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy soxalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 60812400 - Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

• davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

• irrigatsiya melioratsiya tizimlaridan foydalanishda melioratsiya va qurilish mashinalari va jihozlaridan samarali foydalanish;

• boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va



maxalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

• tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mexnatni rag'batlantirish jarayonlari.

**60812400-** *Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish xuquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.*

**1.2.3. 60812400-** *Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari*

- tashkiliy-boshqaruv.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish:
- axborot-taxiliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:
- tadbirkorlik.

**1.2.4. 60812400-** *Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.*

*60812400 - Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:*

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- tashkilot, korxon va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

-suv xo'jaligi va melioratsiya qurilishi ishlab chiqarishida ishlarni bajarish texnologiyalari va texnik vositalarini ko'p variantlilik asosida tanlashda samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbik etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

-suv xo'jaligi va melioratsiya qurilishi ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan innovatsion mehnat vositalari va resurslarni rejalashtirish;

- kasbiy faoliyatga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbik etish;

-ishlab chiqarish jarayonida qurilish ishlari sifatini boshqarish;

-ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

-fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

-zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baxolash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muxofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

**Axborot-taxliliy faoliyatida:**

-boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki



- muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
  - tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
  - loyihalar samaradorligini baholash;
  - axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
  - boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, innovatsion texnologiyalar, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iktisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'idan eng yangi ilmiy innovatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

**2. 60812400- Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish jarayonlarida injenerlik hisoblari, algoritmlari va matematik modellarini qo'llay bilish;
- suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini bajarishda qo'llaniladigan melioratsiya va qurilish texnikalarini, ularning ish jihozlarini tuzilishini, ishlash jarayonini o'zlashtirish va tahlil bo'yicha qobiliyatga ega bo'lish;
- mashinalardan foydalanish jarayonlarini tahlil qilish, sintezlash va optimallashtirishni bilish;



– suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini bajarishda foydalaniladigan melioratsiya va qurilish texnikalari va jihozlarning muhandislik hisoblari, algoritmlari va matematik ta‘minotini ishlab chiqish;

– suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini bajarishda foydalaniladigan melioratsiya va qurilish texnikalariga servis xizmatini ko‘rsatish, ishchi jihozlarning almashuvi, ta‘mirlash strategiyasini belgilash va qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

### 2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

#### 2.3.1. 60812400- Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta‘lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4830	161
Tanlov fanlar	1440	48
Malakaviy amaliyot	720	24
Yakuniy davlat attestatsiyasi	210	7

#### 2.3.2. 60812400- Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>4830</b>	<b>161</b>	<b>1-11</b>
1.01	XT1115	Xorijiy til	450	15	1,2,3
1.02	MAT1115	Oliy matematika	450	15	1,2,3
1.03	OYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.04	TIL1105	O‘zbek(rus) tili	150	5	1
1.05	JTS1104	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	2
1.06	IG1105	Injenerlik geodeziyasi	150	5	2
1.07	FIZ1105	Fizika	150	5	3
1.08	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	3



1.09	NM2105	Nazariy mexanika	150	5	4
1.10	AT2105	Axborot texnologiyalari	150	5	4
1.11	KIM2105	Kimyo	150	5	4
1.12	MMT2105	Materialshunoslik va konitruksion materiallar texnologiyasi	150	5	4
1.13	MQ2105	Materiallar qarshiligi	150	5	5
1.14	GID 2105	Gidravlika	150	5	5
1.15	MDI 2110	Mashina detallari va loyihalash asoslari	300	10	5,6
1.16	FAL2104	Falsafa	120	4	6
1.17	QM2105	Qurilish mexanikasi	150	5	6
1.18	TTV3105	Traktorlar va transport vositalari	150	5	7
1.19	IM 3105	Irrigatsiya va melioratsiya	150	5	7
1.20	QT 3110	Qurilish texnikalari	300	10	8,9
1.21	XFV3105	Hayot faoliyati xavfsizligi	150	5	9
1.22	MT 3110	Melioratsiya texnikasi	300	10	9,10
1.23	MST 4110	Melioratsiya va suv xo'jaligi ishlari texnologiyasi	300	10	10,11
1.24	MSE 4010	Melioratsiya va suv xo'jaligi texnikalari ekspluatatsiyasi	300	10	10,11
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1440</b>	<b>48</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar (11 fan)</i>	1440	48	5-10, 11,12
		<b>Jami</b>	<b>6270</b>	<b>209</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>720</b>	<b>24</b>	<b>6,9,12</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>210</b>	<b>7</b>	<b>12</b>
		<b>Jami</b>	<b>930</b>	<b>31</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

**2.4. Kvalifikatsiya: muhandis- mexanik.**



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

### Tayanch so'zlar:

'bakalavriat, ta'lim sohasi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat turi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, melioratsiya va qurilish texnikalari, suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash, suv xo'jalik ishlab chiqarish kompleksi, mexanizatsiya, servis xizmat ko'rsatish; kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, ta'lim texnologiyasi va metodikasi, fan dasturi, yakuniy davlat attestatsiyasi, davlat ta'lim standarti, axborot-resurs markazi, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasasi, texnik soha, muhandislik ishi, nazorat-o'lchov asboblari, xizmat ko'rsatish-foydalanish, ekspertlik, nazorat va inspektorlik-auditorlik, ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstruktorlik, tashkiliy-boshqaruv, nazariy ta'lim, ta'til, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, mustaqil ta'lim, mehnat bozori, kadrlar iste'molchilari, nazorat.